



UDK: 165.0

Aqida XAYDAROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti, PhD
E-mail: aqi_93@bk.ru

TXKMRM professori, f.f.d M.Nuridinov taqrizi asosida

ВАЖНОСТЬ ЗНАНИЙ И ПОЗНАНИЯ В РАЗВИТИИ ЭВОЛЮЦИОННОЙ ЭПИСТЕМОЛОГИИ

Аннотация

В статье предпринята попытка объяснить важность эволюционной эпистемологии в развитии знаний и то, как знания формируются посредством эволюционных процессов.

Ключевые слова: Эволюция, эпистемология, познавательные знания, научные и интеллектуальные процессы, теория.

THE IMPORTANCE OF KNOWLEDGE AND COGNITION IN THE DEVELOPMENT OF EVOLUTIONARY EPISTEMOLOGY

Annotation

The article attempts to explain the importance of evolutionary epistemology in the development of knowledge and how knowledge is formed through evolutionary processes.

Key words: Evolution, epistemology, cognitive knowledge, scientific and intellectual processes, theory.

BILIM VA BILISHNING EVOLYUTSION EPISTEMOLOGIYANING RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada evolyutsion epistemologiyaning bilim va bilishning evolyutsion epistemologiyaning rivojlanishidagi ahamiyati, uning evolyutsion jarayonlari orqali qanday shakllanishini tushuntirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Evolyutsiya, epistemologiya, kognitiv bilim, ilmiy-intellektual jarayonlar, nazariya.

Kirish. XX asr o'rtalarida falsafada, xususan epistemologiyada muhim bir burilish sodir bo'lgan bo'lib, uni naturalistik burilish deb atash mumkin. Unda olam haqidagi ilmiy mushohadalarimiz, savollarimiz va masalalarimiz, garchi tabiatan sof falsafiy mazmunga ega bo'lsada, empirik topilmalarga tayanishi va shu orqali ularga javob izlanishi zarurligi ta'kidlan boshladi. Boshqacha aytganda, tabiiy-ilmiy bilimlar rivoji shu darajaga yetdiki, endilikda olam haqidagi falsafiy mushohadalarimiz uchun ham javoblar uchun me'zon tabiiy ilmiy bilimlar manbalaridan izlana boshladi. Bir qator olimlar ayniqsa G'arb falsafasi doirasida, xususan G'arb falsafasining kontinental falsafa oqimi doirasida o'zlarining fikrlarini bildirishni boshlashdi. Ularning fikricha bugungi kundagi biologiya va psixologiya, ayniqsa biologiyaning o'zi epistemologiyani tabiiy-ilmiy fanlar doirasiga olib kirishda muhim o'rin tutishi mumkinligini ilgari surishni boshlashdi. Uillarda Kvayn o'zining tabiiylashgan epistemologiya kitobida tahminan shunday fikrlarni ilgari suradi. Uning fikricha epistemologiyani tabiiylashtirishda psixologiyadan ko'ra biologiyaning ahamiyati ko'proqdir. Chunki uning fikricha an'anaviy epistemologik tizimlarimiz va modellarimiz bugungi kun empirik va eksperimental fan talablariga javob bera olmaydi, shunday ekan ulardan voz kechilishi lozim va ular o'rniga inson sezgi organlari ma'lumotlarini qayta ishlovchi va sezgi axborotlari ustida ishlovchi fanlar, xususan psixologiya va xulq-atvor fanlari doiralarida yaratilgan metodlar falsafaga olib kirilishi, shu orqali falsafiy bilimlar va metodologiya isloh qilinishi zarur. Albatta, bunday fikrlar bildirilishining sabablaridan biri bu XX asr ikkinchi yarmida g'arbda hukm surgan bixeyvioristik paradigma hamdir, shu sababdan ham balki bunday fikr ham o'ziga xos davr ruhi namoyandasi sifatida ko'rilishi mumkindir, lekin baribir olimning biologik psixologik metodologiya yordamida falsafiy mushohadalarni

qayta tizib chiqishga intilishi e'tirofga sazovor va XX asr o'rtalaridagi naturalistik burilishning yaqqol namunasi sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Evolutsion epistemologiyada inson ongli qobiliyatlari, inson kognitiv strukturalarining mavjudligi, ularning ratsional tabiatiga oid sababiy, naturalistik izohlar beriladi. Bu bilan ushbu jarayonni XIX asr davomida tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlar orasidagi jarlikning oshib o'tilishiga o'xshatish mumkin. Bizdagi mantiqiy amallarni bajarish, kuzatuvlarimiz mahsullarini ilmiy metodlar yordamida qayta ishlash kabi qobiliyatlar bu bizning muhitga moslashishimizga imkon beruvchi muhim mexanizmlar ekani izohlanadi. Bularning barchasi evolyutsiya natijasida shakllangan tabiiy mexanizmlar ekani ilgari suriladi. Undanda nariga o'tib aytish mumkinki, bunday yondashuvdan foydalangan holda an'anaviy ong-tana dualizmi kabi dilemmalarning ham o'ziga xos javoblari topilishi mumkin.

Inson kognitiv apparatining evolyutsion epistemologiyasiga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, bu g'oyaga ko'ra insonning bilim olishi, ilmiy strukturalarni yaratishi, yoki mavjudlarini o'zlashtirishiga imkon beruvchi kognitiv qobiliyatlari bu individ uchun tug'ma, lekin tur uchun bu tabiiy tanlanish yo'li bilan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan xossadir. Muhitning turga bosimi natijasida muhitni o'zida aks ettirishga qodir kognitiv apparat shakllanadi va bu yondashuv an'anaviy ratsionalistik yoki empirikistik epistemologiyaga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri chaqiriq va ulardan chekinishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson kognitiv apparati evolyutsion epistemologiyasida qanday qilib inson va hayvonlar asab tizimlarining jismoniy va strukturaviy tashkillashuvi turga muhitga moslashuv va tirik qolish imkoniyatini berishi masalasi o'rta qo'yiladi. Darvinizm va evolyutsion epistemologiya orasidagi ko'prik ham aynan shu

masalada deb aytish mumkin. Tadqiqot obyektlari sifatida inson miyasi, sezgi organlari, asab tolalari, gormonal tizim va turli-tuman turlarga xos bo'lgan kognitiv mayllar, yoki idrok bilan bog'liq bo'lgan turli tuman o'ziga xosliklar, masalan uch o'lchamli makonni idrok eta olish, ranglarni idrok etishdagi farqlar, sababiyatni anglash bilan bog'liq farqlar, va hokazolar olinadi. Garchi odatda sababiyatni anglashni oldingilaridan alohida olib, faqatgina insonga xos jihat degan fikrga o'rganib qolgan bo'lsakda, bunda bizni qiziqtiruvchi masala sababiyatni anglashning faqatgina insonga xosligi, uning boshqa mavjudotlarga xos emasligi emas, balki nega aynan uning insonga xosligi, nega uning boshqa turlarga xos emasligi, qay mexanizmlar bunga sharoit yaratgani masalasidir.

Bunda yechimi kutilayotgan masala ham darvinizmdagi umuman olganda turlarning qanday qilib o'z muhitlariga moslasha borishi masalasi bo'lib, bunda maxsus tadqiqot doirasi inson kognitiv qobiliyatlarini olinmoqda. Mexanizm esa biologik tabiiy tanlanish karayonlari tasodifiy genetik o'zgarishlar orqali insonlarning neyrologik va sezgi organlari rivojlanishiga sabab bo'lishi sifatida olinmoqda. Nobel mukofoti sovrindori Lorens bu jarayonni ko'z misolida tushuntirishga harakat qiladi. Lorens fikricha ko'z – bu o'ta murakkab organ bo'lib, evolyutsiya jarayonida ko'plab o'zgarishlar va moslashuvlarni boshdan kechirgan. Bu o'zgarishlarga sabab esa muhitning organizmga bosimi va ko'z organining shu bosimga asosan o'zgarishi va muhitga moslashishidir. Demak, agar ko'z ham tashqi voqelikni insonga muayyan darajada haqqoniy tarzda aks ettiruvchi organ sifatida muhitga moslashish orqali rivojlanganini tan oladigan bo'lsak, ya'ni uning mohiyati uning muayyan muhitda organism uchun funksional nuqtai-nazardan foydali ekanga bog'liq bo'ladigan bo'lsa, demak kognitiv qobiliyatlarimizning ham muhitga mosligi va funksional foydali ekani sabab biz ko'rib turgan holatda ekanini tasdiqlash mumkin. Funksional bo'lmagan ko'z, yoki funksional bo'lmagan inson kognitiv qobiliyatlarini evolyutsiya mexanizmlari ta'siri ostida tanlanmagan bo'lar edi.

Bunda bizning tug'ma kognitiv strukturalarimiz maxsus filtr sifatida, yoki me'ros qilib olingan sxema sifatida amal qiladi. Ular voqelikning tabiati haqida absolyut haqiqatlarni aks ettirmasligi mumkin, lekin ular voqelikda turlarning saqlanib qolishi va rivojlanishini kafolatlovchi, ish beradigan dunyo manzarasini taqdim eta oladi. Aynan shu sababga ko'ra ular evolyutsiya jarayonlari natijasida tanlanadi, saqlanib qoladi va avloddan-avlodga o'tadi. Lorens fikricha organizmning ichki olami subyektiv, idrok olamidir, buni olim Umwelt deb ataydi. Umwelt esa olim fikricha Realwelt, ya'ni tashqi obyektiv olamning bir qismi hisoblanadi.

Lorens argumentning markaziy nuqtasi ham aynan shunda. Olim bunda bevosita Kant epistemologiyasiga qarshi chiqib, uni to'g'rilashga intiladi. Masalan, Kant epistemologiyasiga ko'ra intuitsiya va idrokimizning tug'ma shakllari, yoki tug'ma kategoriyalar bu insonga azaldan xos, ular individual kechinmalar uchun shart-sharoitlar yaratadi, shu sababdan ham ular individual kechinma mavjudligini kafolatlaridir. Buni kategoriyalar mavjudligining ontogenetik zaruriyati deb atash mumkin. Lorens fikricha tug'ma kognitiv strukturalar a posterior, lekin bu individual uchun a posterior emas, balki turlar uchun a posterior. Tur o'zining filogenetik tarixi davomida bunday xossalarga va kategoriyalarga ega bo'lib boradi va ularni shakllantira boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qolaversa evolyutsion epistemologiyada normativ problematika o'rniga deskriptiv problematika maydonga chiqadi, ya'ni an'anaviy epistemologiyaning eng markaziy masalalaridan biri bilimga qanday erishish mumkinligi, bilimning qanday metodlari ishonchli ekani masalasi edi. E'tibor beradigan bo'lsak, bu normativ problematikadir, zero 'qanday' savolini qo'yish orqali

olim kelgusi faoliyatga ushbu metod qanchalar foyda keltirishi mumkinligi haqida so'ramoqda va qay tarzda o'z bilish faoliyati samaradorligini oshirish haqida qayg'urmoqda. Kashf qiluvchi an'anaviy epistemologiya tamoyillari ham agar olimlar jamoasi tasdig'idan o'tadigan bo'lsa, kelgusi olimlarning faoliyati uchun yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi va ularning normativ xarakterini ham aynan shunda ko'ra olamiz.

Tahlil va natijalar. Normativ xarakterdan deskriptiv xarakterga o'tishi deganda esa shu tushunildiki, endilikda, XX asr boshlaridan buyon olimlarning diqqati markaziga kelgusi faoliyatni ishonchli va samarali tashkil etish yo'llari emas, balki biluvchi subyekt o'z faoliyati davomida qanday qilib bilimga ega bo'lishi masalasi kelib o'rnashdi. Endilikda olimlar xuddi botanik dalada o'simliklarni kuzatib, ularning morfologiyasi va areali haqida ma'lumot to'plagan singari, kishilarning kognitiv faoliyatini kuzatib, ularning kognitiv olamlari haqida empirik dalillar to'plashga urg'u bera boshlashdi. E'tibor beradigan bo'lsak, bunday faoliyatdan maqsad kelgusi avlod uchun samaradorlikni ta'minlovchi yo'riqnomalarda ishlab chiqish emas, balki bugungi kundagi tashqi kognitiv olamdagi subyektlarning kognitiv qobiliyatlarini haqida ishonchli va deskriptiv, ya'ni tasvirlovchi empirik ma'lumotlar to'plashdir. Boshqacha qilib aytganda, Kva'yn o'z oldiga qo'ygan masala biluvchi subyekt ratsional mavjudot maqomiga sazovor bo'lishi uchun nimaga ishonishi zarur? qabilidagi masaladan, qanday qilib evolyutsiya ta'siri ostidagi ongli mavjudotlar sifatida biz bilimga ega bo'lamiz va bilimlarimizni mustahkamlaymiz? qabilida qo'yila boshlandi.

Ushbu ko'chish o'ta ta'sirli bo'lib, turli tuman soha olimlarini epistemologiyaga jalb qila boshladi. Shunday olimlardan biri nemis etologi, mashhur olim Konrad Lorens bo'lib, uning fikricha Kant tomonidan ilgari surilgan a prior bilimlar, yoki oddiy qilib aytganda tug'ma kategoriyalar bu aslida shunchaki tabiiy tanlanish natijasida shakllangan moslashuv mexanizmlari va ular irsiy ko'chib o'tish orqali biluvchi subyektlar tomonidan o'zlashtiriladi. Olim fikricha ular garchi individ uchun aprior xarakter kasb etsada, butun boshli tur uchun ular baribir a posterior, ya'ni tajribaga va muhitga tayanuvchi strukturalardir. Ular muhitning individga emas, balki butun turga ko'rsatuvchi bosimi natijasida vaqt o'tishi bilan shakllanadi va tur vakillarining kognitiv olamlarining bir qismini tashkil eta boshlaydi.

Xulosa va takliflar. O'zgarishlar natijasida shakllangan evolyutsion epistemologiya atamasi ham o'z navbatida ikki tadqiqot paradigmasini boshdan kechirgan bo'lib, bu davrlarni amerikalik mashhur faylasuf Donald Kampbell ikki shaxobchaga bo'ladi. Bulardan biri bu biluvchi subyekt kognitiv apparatning evolyutsion epistemologiyasi bo'lsa, ikkinchisi ilmiy nazariyalar evolyutsion epistemologiyasidir. Nomidan ayonki, birinchi shaxobchada tadqiqot diqqati biluvchi subyektning xususiyatlari hisoblanadi. Bularga misol qilib kishi bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan biologik organlar, misol uchun miya, sezgi organlari evolyutsiyasi ko'rib chiqilsa, ikkinchi shaxobchada bilim tarkibiy qismlari hisoblanmish ilmiy nazariyalar, madaniyat namunalari, yoki turli-tuman tushuncha va konsepsiyalar evolyutsiyasiga diqqat qaratiladi. Birinchi shaxobcha oldiga qo'yuvchi eng muhim savollardan biri bu qanday qilib tabiiy tanlanish jarayonlari bizga voqelikni bilish imkonini beruvchi kognitiv qobiliyatga ega bo'lishimizga imkon berdi? Bunga qanday muhit bosimlari sabab bo'ldi, qabilidagi savollarni qo'ysa, ikkinchi shaxobcha o'z oldiga qo'yuvchi savollar bu kognitiv sohadagi, ilmiy bilimda, fan falsafasidagi tanlanish jarayonlari, misol uchun Vena to'garagi vakillari tomonidan sayqallangan verifikatsiya tamoyili yoki keyinchalik Karl Popper tomonidan ishlab chiqilgan falsifikatsiya tamoyili bilim

tizimlarimizdagi o'zgarish va moslashuvlarga qanday qilib sabab bo'lishi savollarini qo'yishadi. Yuqoridagi tasnifdan kelib chiqib, primatologiya, etologiya, neyrobiologiya hamda qiyosiy psixologiya kabi fan sohalarini birinchi shaxobcha vakillari sifatida olish mumkin bo'lsa, fan falsafasi, fan tarixi, madaniyatshunoslik va madaniy evolyutsionizm kabi fan sohalarini ikkinchi shaxobcha vakillari sifatida ko'rsatish

mumkin. Evolyutsion epistemologiya vakillari ushbu ikki yoqlama yondashuv orqali bilimlarimizning butun boshli tizimini, ya'ni bilim manbalari, bilimlarimiz, bilim yaratish mexanizmlari ostida yotuvchi biologik negizlardan tortib bilim ro'yobga chiqarish mexanizmlarigacha, ya'ni ilmiy mezonlar va nazariyalargacha baho berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

ADABIYOTLAR

1. Quine, W.V.O. "Epistemology Naturalized." In *Ontological Relativity and Other Essays*, 69–90. New York: Columbia University Press, 1969.
2. Lorenz, Konrad. *Evolution and Modification of Behavior*. Chicago: University of Chicago Press, 1965.
3. Campbell, Donald T. "Evolutionary Epistemology." In *The Philosophy of Karl Popper*, edited by Paul Arthur Schilpp, 413–463. La Salle, IL: Open Court, 1974.